

## **Oilada Bola Tarbiyasi Muammosining Pedagogik Adabiyotlarda O'rganilganligi**

*Jakbarova Oyazimkhan Mutalipovna<sup>1</sup>*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalq pedagogikasining bola tarbiyasidagi o'rni va tarbiyadagi axamiyat shuningdek o'zbek adabiyotida bola tarbiyasidaga o'rnak bo'luchchi asarlar haqida so'z yuritiladi. Maqolani o'qish davomida siz bola tarbiyasida oilaning o'rni qanday darajada ekanligini to'laligicha tushunib yetishingiz mumkin bo'ladi. O'zbek xalqi azal-azaldan bolajon xalqmiz bola tarbiyasi asosan oila muhitda amalga oshirildi. Oilada olgan tarbiyasi orqali u jamiyatda ham o'z oilasi shanini himoya qiladi.

**Kalit so'zlar:** oila, jamiyat, farzandlarni tarbiyalash, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar.

Ma'lumki, shaxsning qadr-qimmati uning jamiyatda tutgan o'rni bilan belgilanib, ko'p jihatdan uning tarbiyasiga bog'liq bo'ladi. Tabiiyki, bolaning ilk tarbiyasiga javobgar ota-onas hisoblanadi. Bolalarni oila muhitida tarbiyalash davomida ularga hayot to'g'risida yaxshi va yomon xulqlar, odamlarning jamiyat oldidagi burchlari haqidagi dastlabki tasavvurlarni berish lozim. Bolalarning oiladagi an'ana va mavjud ijobjiy odatlarni o'zlashtirishi beqiyos ahamiyatga ega. Ibn Sinoning oilaviy tarbiya to'g'risidagi fikrlarining mazmuni va amaliy ahamiyatini uning quyidagi so'zlaridan bilib olish mumkin: "Bola xulqini mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak, bunga bolani qattiq g'azablanish, qo'rqlik, xafalik va uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladi. Bolaning xohlagan va foydali narsasini darhol topib berishga hamda sevmagan narsasini ko'zidan uzoqlashtirishga doim tayyor bo'lib turish kerak. Bu ishning ikki xil foydasi bor. Bir tomondan, bolaning ruhiyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, bola eng yosh chog'idanoq xushxulq bo'lib o'sadi va bora-bora unga bu xushxulqlik odat bo'lib qoladi. Ikkinchisi tomondan, bolaning tanasiga foyda qiladi, chunki yomon xulq odatga aylanib ketsa, mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan, g'azab kuchni qizdiradi, qayg'u kuchni ozdiradi, xafalik beg'amlikka moyil qiladi. Xulqning mo'tadilligi natijasida ham nafs, ham badan sog'lom bo'ladi". Beruniy ota-onalar va xushxulq tarbiyachilar obro'sining bola tarbiyasiga ko'rsatadigan kuchi haqida ham fikr yuritadi. Ota-onas oilada bolaning ko'z oldida o'z obro'siga ega bo'lsa, tarbiya samarali natija beradi, deya ta'kidlaydi buyuk alloma. Obro' tabiatan berilmaydi, sun'iy ravishda yaratilmaydi, unga qo'rquv va qo'rqtish, zo'rlik bilan erishilmaydi, balki u ota-onaga nisbatan mehr va oqibatdan kelib chiqadi

Dunyo taraqqiyoti insonlar tomonidan kashf etilgan yangiliklar bilan ta'minlanadi. Shu kashfiyotlarni eng buyugi – bu oila bo'lsa ajab emas. Zero, oila u qaysi millat, qaysi davlatga oid bo'lishidan qat'iy nazar aynan mana shu millatni, mana shu davlatning hususiyatini o'zida mujassam etadi.

Shu ma'noda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "... bu yorug" dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaxo ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzod xamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi", - degan fikri ayni muddaodir. Shuning uchun ham oila insoniyatning ilohiy va mo'jizaviy kashfiyotidir.

O'zbek xalqining madaniyati tarixida Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani alohida xurmat, ehtirom ila tilga olinadi. Unda ma'naviyat, madaniyat, axloqiy-estetik munosabatlarning klassik namunalarini ko'rishimiz mumkin: Oilaning har bir a'zosini o'z munosabat uslublari, xatti-harakat tamoyillari bor. Ular oilaning har bir a'zosi, har bir vaziyat uchun alohidalik, o'ziga xoslik kasb etadi. Otabek – Kumush, Otabek – Yusufbek Hoji, Otabek – Qutidor, Otabek Zaynab munosabatlari bunga misol bula oladi. Munosabatning har bir vaziyatida ma'naviy namuna mavjud. Shuning uchun ham

<sup>1</sup> Umumiyyatpedagogika kafedrasini o'qituvchisi



oilaviy munosabatlar, uni bolalarda ma'naviyatlari, sog'lom bola qilib tarbiyalashda "O'tgan kunlar" senariysini andoza qilib olish mumkin.

Oilada sog'lom bola, barkamol shaxs tarbiyasiga zamin yaratishda ota-onaga nisbatan bobo-buvilarning o'rni ko'proq. Mirzo Ulugbekni buvisi Saroymulkxonim nabirasini buyuk olim, ma'naviyati yuksak darajadagi inson va davlat arbobi sifatida rivojlantirishida muhim o'r'in tutgani tarixdan ma'lum. Madaniyat tarixida yuksak pog'onalarini zabit etgan buyuk shoirlar A.S.Pushkinni enagasi, Sergey Yesenin va hamid Olimjonni buvisi o'zlarining ertaklar olami bilan nabiralarni madaniyat gulshaniga yo'llaganlar. Bunday misollarni mashxur yozuvchilar, xofizu sozandalar, aktyorlar, rassomlar xayotlaridan misollarni yuzlab keltirish mumkin.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish darkorki shaxs shakillanishida biologik va ijtimoiy tasirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bola shakillanishida ham bu ikki omil muhim ro'l o'ynaydi. Ijtimoiy tasirlardan biri bu ma'naviy tasirdir. Va tasir o'zbek adabiyot sanatida yetarlicha boydir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O.U. Hasanboyeva, M.X. tojiyeva, Sh.K. toshpo'latova va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun o 'quv qo'llanma.(to'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri). T.: «ilm ziyo», 2011. — 184 b
2. Kushmatova Maftuna Maxamadali qizi. Mavzu: farzand tarbiyasidaoilaviy munosabatlar va tarbiyaning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Bitiruvmalaka ishi. Andijon-2017
3. O.Safarov, m.mahmudov "Oila ma'naviyati" – 2009 yil.
4. Sodiqova Sh. "Maktabgacha pedagogika" Toshkent., 2013 yil.

